

BANK TIZIMI TRANSFORMATSIYASI JARAYONI VA UNING BANKLAR BARQARORLIGIGA TA'SIRI (O'ZMILLIYBANK AJ MISOLIDA)

Djalalova Sabina Bakhodirovna

Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.

Annotatsiya: *Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu bankarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi. Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi. Ushbu maqolada mamlakatimiz bank tizimida transformatsiya jarayoni hamda ushbu jarayonning bank barqarorligigga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Tijorat banklari, bank tizimi, moliya xizmatlari, transformatsiya, chakana xizmat.*

Abstract: *Commercial banks are an important link of the banking system, the main part of credit resources is collected in this bank, and these banks provide services to legal entities and individuals. In the Republic of Uzbekistan, commercial banks are the second tier of the banking system after the Central Bank. It is the central link in the financial sphere of economic management in the conditions of the market economy through the banking system. Having a dominant position in the market economy, it advances the problem of managing the circulation of goods and money, and through it, managing the economic activity. This article talks about the process of transformation in the banking system of our country and the impact of this process on the stability of the bank.*

Key words. *Commercial banks, banking system, financial services, transformation, retail service.*

Аннотация: *Коммерческие банки являются важным звеном банковской системы, в этом банке собрана основная часть кредитных ресурсов, и эти банки предоставляют услуги юридическим и физическим лицам. В Республике Узбекистан коммерческие банки являются вторым звеном банковской системы после Центрального банка. Это центральное звено финансовой сферы управления экономикой в условиях рыночной экономики через банковскую систему. Занимая доминирующее положение в рыночной экономике, оно выдвигает проблему управления товарным и денежным обращением, а через него и управления экономической деятельностью. В данной статье говорится о процессе трансформации в банковской системе нашей страны и влиянии этого процесса на устойчивость банка.*

Ключевые слова: *Коммерческие банки, банковская система, финансовые услуги, трансформация, розничное обслуживание.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimi rivojiga qaratilgan tub o'zgarishlar o'zining kutilgan samarasini bermoqda. Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat mijoz, balki yaqin hamkor, hammaslak sifatida mustahkam aloqa o'rnatgan. O'z biznesini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan ishbilarmonlarga banklar katta ko'mak bermoqda. Bir so'z bilan aytganda, aholi ishonchini qozonadigan, keng qamrovli moliyaviy xizmatlarni ko'rsata oladigan bank tizimi shakllandi. Ayni paytda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 26 ta tijorat bankining 854 ta filiali, 4292 ta mini-bank va chakana xizmat ko'rsatuvchi muassasasi orqali tizimda erishilgan ijobiy natijalar mustahkamlanmoqda. Bu natijalar bank xizmatlari va mahsulotlari turlari tobora kengayib borayotganida, ishbilarmonlik muhiti tobora yaxshilanib, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi o'sayotganida aks etmoqda. Bugungi kunda mijozlar o'z hisobvaraqlarini masofadan turib, real vaqt rejimida uyali va elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda boshqarish imkoniga egalar. Garchi bunday xizmatlar joriy etilganiga ko'p vaqt bo'lmagan esa-da, lekin juda tez ommaviylashib ketdi. Xususan, so'nggi besh yilda ushbu xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni qariyb 90 foiz ortdi yoki bugungi kunda 1,1 milliondan oshdi. Plastik kartochkadan foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. "So'nggi besh yil mobaynida terminallar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 5 marta ortdi."⁴⁸ Bank tizimiga yangi ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilan tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tezkorligi, sifati va ishonchligi ham oshmoqda. Tijorat banklari faoliyatini xalqaro mezon va andozalar asosida tashkil etish, banklarning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini umum qabul qilingan talablarga muvofiqlashtirish borasida olib borilgan ishlar bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini (Bazel-3) mamlakatimiz bank tizimiga Hamdo'stlik davlatlari orasida birinchilardan bo'lib joriy etishga sharoit yaratdi. Ularga ko'ra, tijorat banklari kapitalining yetarligiga qo'yilgan talablar oshirildi, likvidlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha me'yorlar joriy qilindi, bank aktivlari sifatini tasniflash va xatarlarni boshqarish tizimlari yanada takomillashtirildi. Tijorat banklarining moliyaviy holati barqarorligi hamda iqtisodiyotda sodir bo'ladigan keskin o'zgarishlarga bardosh bera olishi ko'p jihatdan ularning kapitallari miqdori va kapitallashuv darajasiga bog'liqdir. O'zmilliybankni xalqaro andozalarga muvofiq ish yuritadigan zamonaviy tijorat bankiga aylantirish maqsadida, bugungi kunda xalqaro konsalting tashkilotlarini jalb qilgan holda bankni transformatsiya qilish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunda O'zmilliybankda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga, bank faoliyatiga

⁴⁸ Омонов А.А., Коралиев т.М. "Пул ва банклар" Дарслик. Т.: "ИКТИСОД-МОЛИЯ", 2019 й. - 461 б.

innovatsiyalarni joriy qilishga va bu orqali mijozlar uchun yangi raqamli bank xizmat turlarini taklif qilishga muhim e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ahamiyatli bo'lgan yirik korxonalarini, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish, ularni butunlay yangi tizimda moliyalashtirish, hududlardagi eng istiqbolli va davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash shular jumlasidan.

Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir. Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo'lmagan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma'muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zlanmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi moliyalashuv va raqamlashuv sharoitida O'zbekiston milliy bank tizimi transformatsiyasi borasida so'nggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi.


Bu haqda Prezidentimiz raisligida shu yil 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda ham alohida to'xtalib o'tildi. Jumladan, sohani isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so'nggi uch yilda banklar kapitali 1,8, yillik kredit ajratish hajmi esa 2 barobar ko'paydi. 4 ta bank ilk bor "evrobond" chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. Ipoteka-bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog'iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobar oshdi.

"Tahlillarga ko'ra, 2010-yillardan boshlab moliyaviy texnologiyalarga asoslangan Fin-tech kompaniyalari jahon moliya bozorida faollashdi."⁴⁹ 2018-yilga kelib, bunday kompaniyalar raqamli amaliyotlar tufayli yuqori samaradorlikka ega ekanini namoyon etib, ma'lum bir moliyaviy amaliyotlar bo'yicha tijorat banklari bilan raqobatlasha boshladi. Shunday bir sharoitda tijorat banklari raqamli transformatsiyasi zarurati kun tartibiga chiqdi. Natijada tijorat banklari tomonidan Fin-tech kompaniyalarini qo'shib olish yoki moliyaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli bank mahsulotlarini joriy etish keskin rivojlandi. Ushbu jarayonda global pandemiya sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatish zarurati ham ijobiy ta'sir etdi.

⁴⁹ Бектемиров Абдумалик, Маликова Дилрабо Муминовна, Пирназаров Умид Наржигитович
БАНК КРЕДИТ ПОРТФЕЛИ ВА УНИ САМАРАЛИ БОШКАРИШ ЙУЛЛАРИ // ЖМВМ. 2023. №2.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bank-kredit-portfeli-va-uni-samarali-bosh-arish-y-llari>.

Xorij an'anaviy banklarining yuqori sur'atda raqamli banklarga transformatsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizdagi tijorat banklari transformatsiyasi global raqobatga kirishishda muhimdir. Bunda xususiy banklar transformatsiyasi, asosan, raqamli transformatsiyaga yo'naltirilsa, davlat ishtirokidagi tijorat banklari transformatsiyasi ikkita yo'nalishda tashkil etiladi. Bular, birinchisi, bank aktivlarida xususiy banklarning ulushini keskin oshirishga erishish, ikkinchisi, raqamli transformatsiya amaliyotidir.

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI» AJ MOLIVAVIY NATIJARLAR TO'G'RIDA HISOBOT



Ayni yo'nalishlarda, yuqorida qayd etilganidek, tizimli ishlar olib borilmoqda. Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan alohida maqsad ijrosi tomon intilishni o'zida namoyon qiladi. Shuningdek, onlayn bank xizmatlari hajmining 2,7 barobar oshgani bank tizimi raqamli transformatsiyasidagi dastlabki natijalardir.

Shunga qaramasdan, bu jarayonda e'tibor qaratilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlar hamon mavjud. Qolaversa, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy etish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini

takomillashtirish kabi vazifalar ijrosini ta'minlashda bank tizimi transformatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Respublikamizda 2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, umumiy bank aktivlarida davlat ishtirokidagi banklar ulushi 69 foizni tashkil qilmoqda. Tijorat banklari kapitalida esa 67 foizi davlat ulushidir. Davlat ishtirokidagi banklar faqatgina 35 foiz kredit depozitlar bilan ta'minlangan, qolgan 65 foiz kreditlar esa davlat resurslari hisobidan amalga oshirilgan.

“Alohida ta'kidlash lozimki, raqamli transformatsiya samaradorligi tijorat banklarida aktsiyadorlik kapitaliga egalik holatidan kelib chiqqan holda farq qiladi.”⁵⁰ Ya'ni xususiy banklar raqamli transformatsiyasi operatsion xarajatlarni keskin qisqartirishga xizmat qilmoqda va bu, o'z navbatida, sof foydaning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari raqamli transformatsiyasi esa operatsion xarajatlarning jiddiy ravishda kamayishiga olib kelmayapti. Bundan o'z-o'zidan bank tizimi transformatsiyasida mulkka egalikning davlatdan xususiy sektorga transformatsiyasi birlamchi ekani namoyon bo'ladi. Shu bois, bank tizimini xususiylashtirish va xususiy banklarning moliya bozorida faolligini oshirish oxir-oqibat tizim samaradorligi o'sishiga xizmat qiladi. Natijada 2030-yilga qadar mamlakatimiz bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobar oshirish maqsadlariga erishish imkoniyati ortadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, banklar transformatsiyasi orqali moliyaviy xizmatlarni olish aholi uchun juda sodda va qulay shaklga kelishi kerak. Bunda IT texnologiyalarning keng yo'lga qo'yilishi bilan bir qatorda xodimlarning malakasidan tortib muomalasigacha o'zgarishi, yangicha yondashuvlarga mos bo'lishi juda muhimdir.

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshadi, moliya bozorida teng raqobat sharoitlari shakllanadi, kreditlash faqat bozor shartlariga bo'ysunadi. Xizmat ko'rsatish modernizatsiyalashib, banklarning samarali infratuzilmalari yaratiladi, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'i rivojlanadi, faoliyat avtomatlashtiriladi, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinib, bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi ko'tariladi.

⁵⁰ Бектемиров Абдумалик, Маликова Дилрабо Муминовна, Пирназаров Умид Наржигитович
БАНК КРЕДИТ ПОРТФЕЛИ ВА УНИ САМАРАЛИ БОШКАРИШ ЙУЛЛАРИ // JMВМ. 2023. №2.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bank-kredit-portfeli-va-uni-samarali-bosh-arish-y-llari>.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маликова Д. М. и др. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КРЕДИТА: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ // Journal of new century innovations. - 2023. - Т. 30. - №. 4. - С. 3-6.
2. Кравченко, О. В. Управление кредитным портфелем банка / О. В. Кравченко, С. А. Болгов, А. А. Васина // Энигма. - 2020. - № 18-1. - С. 19-30. - EDN JFTCQW.
3. Омонов А.А., Коралиев т.М. "Пул ва банклар" Дарслик. Т.: "ИКТИСОД-МОЛИЯ", 2019 й. - 461 б.
4. Бектемиров Абдумалик, Маликова Дилрабо Муминовна, Пирназаров Умид Наржигитович БАНК КРЕДИТ ПОРТФЕЛИ ВА УНИ САМАРАЛИ БОШКАРИШ ЙУЛЛАРИ // JMBM. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bank-kredit-portfeli-va-uni-samarali-bosh-arish-y-llari>.
5. Khudoykulov, N. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.
6. Маткулиева, С., & Атабаева, К. (2022). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ И ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ. Scientific progress, 3(2), 360-363.